

“EKSTREMIZM VA TERORIZMDAN OGOH BO'LAYLIK”

SHahrisabz davlat pedagogika inistituti

Tyutori Xurramov Yashin Halilovich

MG`MA 1-24-GURUH talabasi

Aliqulova Nozima Abduvali qizi

**Kalit so`zlar.**Ekstremizm,terorizm,eng xavfli jinoyat,ekstremizmning paydo bo`lishi va rivojlanishi, terorizmning vujudga kelish tarixi,ekstremizm va terorizmning oldini olish yo`llari.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekstremizm va terorizm haqida fikr yuritilgan bo`lib ,bu tushunchalarning tarixan kelib chiqishi ,rivojlanishi,shu bilan bir qatorda bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylanishi sabablari o`rganib chiqildi.

XXI asr – internet,ajoyib kashfiyotlar,tehnalogiyalar asri sifatida tarixda qolmoqda shu o`rinda barcha asrlarda bo`lgani kabi bu asrda ham turli muammolari bo`lib bulardan,ba`zilarini sanab o`tamiz; ekstremizm, terorizm, ommaviy madaniyat va hokazolar...

Hozirgi kundagi eng kata muammolarning ko`p qismi ,yoshlar hayotida salbiy ta'sir ko`rsatmoqda, bu esa kelajakni ham qiyin holda qoldirishga sabab bo`lmoqda.Bunga misol tariqasida ;ommaviy madaniyat,ekstrimizm va terorizm kabi tushunchalarni bemaolol aytishimiz mumkin. Chunki, aynan shu muammolar bugungi kunning urushi,ko`plab davlatlarning, umuman olganda, jaxon miqyosidagi muammolar qatoridagi eng muammoli vaziyatlardan biridir.Ayni damda bu ofatlarga qarshi keskin kurashlar olib borilmoqda, jumladan, har bir ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan voyaga yetmaganlarni bu xafdan ogoh qilish ush bu oqimlarning tuzog`iga tushib qolishdan saqlash maqsadida, soha mutaxassislari bilan hamkorlikda targ`ibot-tashviqot ishlari sifatini oshirmog`imiz zarur. Manbalarda keltirilishicha diniy ekstremizm va terorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalishidan dalolat beradi.Shunday bo`lsada , ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungudek tahdid solmaganini qayd etish lozim .

Yuqorida umumiy qilib,eksterimizm va terorizm haqida fikr yurutdik, endi bo`lsa, eksterimizm nima?terorizm nima? kabi savollarga to`liq to`xtalib o`tamiz.¹

Terorizm-jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish , aholi keng qatlamlarida vahima va qo`rquv uyg`otish kabi o`ziga xos usulidir.U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish oqibatida,maqsadida amalga oshiriladi.

¹ .Karimov I.A,"O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida" ,T..1995.Alisher Vahobov.

Terrorchi guruhlar jamiyatda aholining keng qatlami nomidan harakat qilish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Diniy eksterimizm – ba'zi diniy tashkilotlar yoki asosan ayrim dindorlarning jamiyat qonun –qoidalariga salbiy faoliyati tushuniladi. XX asr oxirigacha diniy eksterimizm va aqidaparastlik tarqatish va aholi orasida turli adabiyot va nashrlar xizmat qilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiya vositalari rivojlangan hozirgi davrda ayniqsa internet tarmog'i diniy eksterimistik va aqidaparastlik g'oyalarini tarqatishning eng optimal tarmog'i bo'lib qolmoqda.

Yurtimiz ham boshqa davlatlar qatorida bu illatlardan aziyat chekib kelmoqda. 2000-2005 yillar yurtimizning turli burchaklarida bu illatlar o'z aksini topdi. Diniy eksterimizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi bu mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Ularning, vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan "rahnamolarning" asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. ularning asosiy niyati butun osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligini barpo etish kerak deb kurashmoqdalar. Lekin, ularning asosiy niyati shu bilangina cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib hokimiyatni qo'lga olish, bu yo'lda inson deb atalmish buyuk zotni ham o'ldirishdan tab tortmayapti. Ular hozirgi kunda, ayni daqiqada ham o'z yovuz ishlarini turli davlatlarda amalga oshirmoqdalar.

Barchamizga ma'lumki, bunday illatlar dunyo miqyosida ko'plab talofatlarga olib kelmoqda, bunga misol tariqasida: 2001-yil 11-sentabrda AQSHda bo'lgan voqealarni, yoki, o'zimizdagi Farg'ona voqealarini yodga olaylik. Bir so'z bilan aytganda bu illatlarning oqibati, doim salbiy bo'lib, bunday fojiali holatlarning bari insoniyat ongida azobli iz qoldirmoqda.

Keling, bir bunday yomon va keraksiz illatlarning tarixiga bir nazar solaylik... Manbalarda keltirilishicha, diniy eksterimizm va terorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. "Terorizm" so'zi birinchi marta 1793-1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida iste'molga kiritilgan. Ammo bu davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan.

Ayni shu illatlar hozirgi kunda dinlarni qoralashga, insonlarni noto'g'ri yo'lga boshlashga, ko'plab onalarni bolalari dardida ko'yishiga sabab bo'lmoqda. Afsuski, bo'larning bari rost va ravshandir. Chunki bu illatlar oqibatida ko'plab insonlar jabr ko'rmoqda, ammo shunday bo'lsada, hali hamon bu illatlar domiga tushib qolayotgan yoshlarning soni ortib bormoqda.² Bu esa shuni ko'rsatadiki, ogohlikni yanada ko'chaytirishimiz zarurligi va shu yo'l orqali yoshlarni bu yo'ldan qaytarishimiz mumkinligini malum qiladi. Shu o'rinda yana bir falsafiy qarashlar mavjud bo'lib, bu yoshlarni tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni nazorat qilish, iloji boricha yoshlarning ta'lim va tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishga

Abduvali Berdiyev "O'zbekistonning eng yangi tarixi"
TOSHKENT BOOKMANY PRINT" 4-bet.

katta e'tabor berish ortida ommaviy madaniyatni ham yoshlar ongida to'g'ri targ'ib qilishga erishilish bo'yicha qarashlardir. Qachonki yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli o'tishiga erishilsa, ularni bunday yomon oqimlardan asrashga erishamiz, shu sababli ham ogoh bo'laylik sergaklikni yo'qotmaylik.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida bu ofatlarga qarshi chora tadbirlar ko'rilmoqda, shu o'rinda bizning davlatimizda ham bu illatlarga qarshi chora tadbirlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ning farmonlari e'lon qilindi. Aynan bu farmonning e'lon qilinishidan ham bizning yurtimizda bu illatlarga qarshi chora tadbirlar ancha rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Afsuski, bu illatlarni oldini olishga qanchalik harakat qilmaylik, hali ham ulardan to'liq halos bo'lganimiz yo'q. Ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda dunyo miqyosida 500ga yaqin terrorchi tashkilotlar ish olib bormoqda. Tarixan ularning faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1968-1980-yillar davomida ular 6700 ga yaqin terrorchilik amaliyotlarini sodir etganlar. Natijada 3668 kishi halok bo'lib, 7474 kishi turli jarohatlar olgan. Ushbu ma'lumlardan ham biz bu illatlar qanchalik, ayanchli va yomonligiga amin bo'lishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilishimiz kerakki, yoshlarimizni boshidan to'g'ri yo'lga boshlay olsak, ularga to'g'ri ta'lim va tarbiya bera olsak, shunchalik eksterimizm va terorizim xafidan ularni himoya qilgan bo'lamiz. Teroristlar dinni o'ziga niqob qilib, insonlarni noto'g'ri yo'lga chorlashadi. Afsuski ko'plab insonlar ularga aldanib qolishadi, chunki, ular o'z dinlarini tarixini, maqsadi va mazmunini to'liq bilishmaydi, bu esa ularni osongina teroristlar domiga tushib qolishlariga sabab bo'ladi. Shu boisdan, yoshlarga dinnlarning tarixini to'g'ri o'rgatishimiz va barcha dinlar yaxshilikka chorlashini tushuntirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng asosiysi befarq bo'lmaylik, doim bu yomon illatlarga qarshi sergak turaylik, ogoh bo'laylik.³

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. - Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusida anjumandagi nutqi.
3. Tosh DA Uning "Agranom" gazetasi 767 soni.
4. Elmurod Bahtiyorovich "Diniy ekstremizm va Terorizm" - O'zbekiston, 2015
5. WWW.//ziyonetuz.

³ .Islom Karimov "Yuksak Ma'naviyat-Yengilmas Kuch"
TOSHKENT"MA'NAVIYAT"2010 11-bet.